

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIIY FANLAR FAKULTETI EKOLOGIYA VA TABIATNI
MUXOFAZA QILISH KAFEDRASI**

FAN: Tabiatni muhofaza qilish

KURS ISHI

**Mavzu O'zbekistonning o'simlik va
hayvonot dunyosi biologik xilma xilligini muxofaza qilish .**

Bajardi: Egamqulov A

Tekshirdi dos. Jurayev m.J.

Samarqand -2013

O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosi biologik xilma xilligini muxofaza qilish .

Reja

1.o'zbekistonning o'simliklar dunyosi.

2.o'zbekistonning hayvonot dunyosi.

**3. O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosi biologik xilma xilligini
muxofaza qilish .**

4. Xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosi biologik xilma xilligini muxofaza qilish .

O'zbekistonning tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosi juda xilma-xil. Respublikamiz hududida 3000 tadan ziyod o'simlik turi mavjud bo'lib, bularning 9 foizi faqat O'zbekistonda uchraydigan endemik o'simliklardir. O'zbekistonning o'simlik va hayvonot dunyosi Kavkaz va Old Osiyo, xususan Eron mamlakatlari hududi bilan muayyan umumiylikka ega. Respublikamizda sut emizuvchilarning 91 ta turi, sudralib yuruvchilarning 57 ta turi, qushlarning 400 ta turi, baliqlarning 40 tadan ortiq turi bor. Ular muayyan qonuniyatlar bo'yicha tarqalgan.

O'zbekiston hududi yer yuzasining g'arb va shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa va sharqqa tomon ko'tarila borishi sizga malum. Toqqa tomon havo harorati pasayib, yog'inlar miqdori ortadi, tuproq o'simlik qoplami o'zgaradi. Shuning uchun hami respublikamiz tabiat zonalari janubdan shimolga emas, balki g'arbdan sharqqa, yani tekislikdan toqqa tomon o'zgarib, balanlik mintaqalarini hosil qiladi.

Yer yuzasi okean sathidan balanlashgan sari iqlim umuman bir butun tabiatning o'zgarib borishini ulug' allomalar Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinolar X asrdayoq idrok etgan edilar.

O'zbekiston hududidagi balanlik mintaqalarining vujudga kelishi va uning sabablari, u bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar O'zbekiston Fanlar akademiyasining akkademigi K.Z. Zokirov tomonidan ishlab chiqildi. K.Z. Zokirov tavsiya qilgan to'rtta: cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarining har biri o'ziga xos iqlim, tuproq qoplami, o'simlik va xayvonot dunyosiga ega. Ularning xar birida ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar ham bir-biridan farq qiladi.

Tuproq turlari. Respublikamiz hududida turli tabiiy sharoit tasirida hilma-hil tuproq turlari tarkib topgan. Bular: 1) qayir allyuvial tuproqlar, 2) o'tloq bo'z tuproqlar, 3) qumli cho'l tuproqlari, 4) cho'l taqir tuproqlar, 5) sho'rxok tuproqlar, 6) sur-qo'ng'ir tuproqlar, 7) sug'oriladigan (madaniy) bo'z tsproqlar, 8) och tusli bo'z tuproqlar, 9) oddiy (tipik) bo'z tuproqlar, 10) to'q tusli bo'z tuproqlar, 11) tog' jigar tuproqlar va 12) tog' o'tloq tuproqlaridan iborat.

Cho'l mintaqasi. Cho'l mintaqasi okean sathidan 400-500 m balanlikkacha bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi va O'zbekiston maydonining 70% ini ishg'ol qiladi.

Cho'l iqlimining juda issiq va quruq ekanligi, yog'inlarning juda kam yog'ilishi sizga malum. Yozda yog'in deyarli yog'maydi. Kunduzi havo harorati $+45^{\circ}$, $+50^{\circ}$ S daragacha, qum yuzasi esa $+80^{\circ}$ S darajagacha qiziydi.

Cho'lning qattiq, issiq va qurg'oqchil iqlimi, siyrak o'simliklar sharoitida tuproq hosil bo'lish jarayoni juda sust boradi.

Cho'l tuproqlari xilma-xil bo'lib, unda sur-qo'ng'ir, qumli cho'l, taqir va bo'z tuproqlar uchraydi. Cho'ldagi organik miqdori yuqori harorat tufayli tez parchalanib, mineralashadi. Shuning uchun tuproqlar tarkibida chirindi ancha kam bo'ladi.

Ustyurt platosi, Qizilqumdagi past tog'lar va Nurota tog'larining etaklaridagi toshloq cho'llarda sur-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Bunday tuproqlar chirindi juda kam, ular ko'rincha sho'rtob bo'ladi. Tuproqning ustki qatlamida kalsiy karbonat, pastki o'atlamida esa sulfat tuzlaridan gips to'planadi. Tarkibida chirindi miqdori 0,3-1% gacha bo'lgan sur-qo'ng'ir tuproqli joylarda siyrak o't o'sadi, mayda mollarni boqish imkoniyati vujudga keladi.

Qizilqum, Zarafshon daryosi etagi, Markaziy Farg'ona va Mirzacho'ldagi qumli tekisliklarda qumli cho'l tuproqlari tarqalgan. Bu tuproqlar tarkibidagi chirindi miqdori 0,3-0,6% ni tashkil etadi. Bunday tuproqlarda dehqonchilikda foydalanish qiyin. Qumli cho'l tuproqlarda o'sadigan o'simliklardan qorako'l quyilari uchun yaylov sifatida foydalaniladi.

Cho'llarda taqirlar ham uchraydi, ular gili jinslardan tarkib topgan bo'lib, tarkibidagi chirindi miqdori 0,5-1% ga yetadi. Taqirlar Ustyurtda, shuningdek quruq deltalarda, qadimgi daryolarning ko'hna qayirlarda uchraydi. Taqirlarda o'simlik o'sishi qiyin, tuproq yuzasi qattiq va yorilib-yorilib ketadi.

Respublikamizning yer osti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarda (Mirzacho'l, Markaziy Farg'ona, Qarshi cho'llari va Amudaryo etagida) sho'r tuproqlar vujudga kelgan. Bunday joylarda yer osti suvi yer betiga chiqib

bog'lanadi, tuproq tarkibida tuz ko'payadi. Cho'l mintaqasidagi yirik sho'rhoklar (masalan, Borsa-kelmas sho'rhoki) dan dehqonchilikda foydalanib bo'lmaydi.

O'zbekistonning daryo vodiylarida, qayir va deltalarida o'tloq va botqoq tuproqlar uchraydi.

Respublikamiz tekislik qismining sharqiy va janubiy chekkalarida bo'z tuproqlar keng tarqalgan (ular asosan uch xilda: och tusli bo'z tuproq, oddiy bo'z tuproq va to'q tusli bo'z tuproqqa bo'linadi). Bo'z tuproqlar qalin lyoss yotqiziqlari ustida hosil bo'lgan. Tarkibida chirindi ko'p bo'lmasa ham zarralari mayda bo'lib, suv va havoni o'zidan yaxshi o'tkazadi.

Cho'l mintaqasining okean sathidan 300-500 m balantlikdagi joylarida och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan. Och tusli bo'z tuproqning tarkibida 1-1,5% gacha chirindi bo'ladi. Sug'orib, o'g'itlar solinsa unumdor tuproqqa aylanib, yaxshi xosil bernadi.

Amudaryo etagi, Yu Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron, Qashqadaryo va Surhondaryo vodiylaridagi qadimiy obikor dehqonchilik qilinadigan joylarida vohalar vujudga kelgan. Bu yerdagi bo'z tuproqlar uzoq vaqt ishlov berilishi natijasida madaniy tuproqlarga aylangan.

Cho'l mintaqasida o'simlik qoplami siyrak. Nam yetarli bo'lgan bahor fasli cho'l mintaqasining manzarasi o'zgacha bo'ladi, Yu bu vaqtda efemer o'simliklar bark urib o'sib, cho'l yam-yashil libosga burkanadi.

Jazirama yoz issiqlari boshlanishi bilan cho'ldagi o'tlar sarg'ayib, qovjirab quriy boshlaydi. Cho'lda sidirg'a o'simlik bo'lmaydi.

Cho'l o'simliklari jazirama va quruq iqlim sharoitiga moslashgan. Ularning ildizi juda uzun, barglari mayda yoki butunlay bo'lmaydi. Shuning uchun tanasida nam kam bug'lanadi. Bazi bir o'simliklar qisqa, sernam va salqin muddatga o'z hayotini tugallashga ulguradi.

Qumlm cho'llarda Selin, juzg'un, qora qandim, cherkez, quyonsuyak va iloq o'sadi. Qumlarda qora qandim va qizilcha butalari, shuningdek saksovul (yog'ochi qattiq, suvda cho'kadi) uchraydi. Saksovulsh qumlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Sho'rhok joylarda ajriq, yulg'un, sho'ra va shuvoq o'sadi. Gili cho'llarda qum qiyog'i va qo'ng'irbosh uchraydi.

Respublikamiz cho'llarida qorako'l qo'ylari va tuya boqish uchun yaylov sifatida foydalaniladi. Cho'lda foydali o'simliklar ko'p. Masalan, cherkez va isiriq tarkibida turli xil kasalliklarni davolaydigan alkaloidlar bor, sassiq kovrak tarkibidagi smoladan malham tayyorlanadi, ildizi esa krahmalga boy. Ayrim o'simliklardan buyoq olinadi.

Cho'l mintaqasining hayvonlari hilma-hil bo'lib, ular cho'l sharoitiga moslashgan bo'z va sarg'ish rangda bo'ladi. Cho'llardagi bazi hayvonlar butunlay suv ichmay yashaydi, ular o'zi istemol qiladigan o'simliklar tarkibidagi nam bilan qanoatlantiradi.

Cho'l hayvonlari jazirama issiqqa ham moslashgan. Ko'pchilik hayvonlar chopqir, ko'zlari o'tkir bo'ladi. Cho'lda sudralib yuruvchi kaltakesaklardan agama, dumaloq bosh kaltakesak, gekkonlar yashaydi.

Echkemar-eng yirik kaltakesak bo'lib, uning uzunligi 1,5 m ga yetadi. U mayda kaltakesak, ilon, qush bolalari, mayda sut emizuvchilar bilan oziqlanadi.

Respublikamiz cho'llarida ilonlar ko'p. Qumlarda bo'g'ma ilonlar yashaydi, ular xasharot, kaltakesak va ayda kemiruvchilarni tutib yeydi. Tez yuguradigan, hatto saksovul va juzg'unlarga ham epchillik bilan chiqib oladigan o'qilonlar tanasining bir qismini tik ko'tarib tura oladi. Zaxarli ilonlardan charxilon, efa, qalqonbosh (chinqiriq) ilon, chipor ilon, janubda O'rta Osiyo kapchabosh iloni (uni bazan «ko'zoynakli ilon» deydilar) yashaydi. Ilonlar zaxaridan zardob tayyorlanib, turli kasallar davolanadi. Cho'ldagi toshbaqalar va bazi kemiruvchilar kunlar isib, o'simliklar qurib qolgach, kelgusi bahorgacha uyquga ketadilar.

Cho'l mintaqasida qo'shoyoq, yumronqoziq kabi kemiruvchilar ko'p. Ular o'simliklarni kemirib, urug'larini yeb, cho'l yaylovlarga zara yetkazadi. Cho'ldagi kemiruvchilarning kushandasi sassiqqo'zan va tulkilardir. Cho'llardi yirtqichlardan chiyabo'ri va barhan mushugi ham uchraydi.

Bu mintaqadagi yirik sut emizuvchi hayvonlar - jayron va sayg'oqdir. Bular cho'l rangida bo'lib, ularni darhol payqab olish qiyin, ular juda sezgir, chopqirdir. Xususan jayron juda go'zal kiyikdir. Cho'lda qushlar nisbatan kam: asosan ho'jasavdogar, boyqush, chumchuq, turg'aylar yashaydi. Hasharotlardan qoraqurt inson uchun xavflidir. Cho'lda shuningdek chayon, falanga uchraydi.

To'qay. Respublikamizning Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron kabi daryolari sohillarida to'qaylar uchraydi. Bular o'ziga xos tabiat landshaftlari bo'lib, siyrak, zax o'rmon va chakalakzorlardan iborat. To'qaylarning kengligi bir necha yuz metrdan bir necha kilometrgacha bo'lishi mumkin.

To'qaylarda o'tlar, butalar va daraxtlar o'sadi. O't o'simliklaridan - qizilmiya qo'g'a, qamish, kendir va chirmovuqlar; butalardan-chikinda, yulg'un, ching'il va savag'ichlar; daraxtlardan tol, turong'il va jiydalar uchraydi.

Taassufki, tabiiy boyliklarimizdan bo'lmish to'qaylar keyingi yillarda inson faoliyati, daryo suvlarining kamayishi natijasida, hususan Quyi Amudaryo sohillaridan qisqarib bormoqda.

To'qaylar ko'pchilik hayvonlarning yashashi uchun muayyan sharoitga ega. Bu joylarda chiyabo'ri, tulki va bo'rilar yashaydi. To'qaydagi eng yirtqich hayvon-to'qay mushugidir. Changalzorlarda to'ng'iz ham uchrab turadi.

Xongul kiyigi o'lkamiz to'qaylarining ko'rkidir.

To'qavylarda qushlar ko'p bo'ladi. To'qay eng chiroyli qushlardan hisoblanmish qirg'ovullar maskanidir. Shuningdek, qarqara, birqozon, g'oz, o'rdak va boshqa qushlar ham yashaydi. To'qaylarda xasharotlar ko'p.

Adir mintaqasi. Bu mintaq okean sathidan 400-500 m dan to 1000-1200 m gacha bo'lgan balandliklarda joylashgan bo'lib, tog' oldilarini egallaydi.

Adir iqlimi cho'l iqlimidan bir oz farq qilsada, yozi issiq va uzoq davom etadi. Yozi cho'ldagideuk jazirama issiq emas, yillik yog'in miqdori 300-450 mm. O'simlik qoplami cho'ldagidan qalinroq. Bunday sharoitda oddiy va to'q tusli bo'z tuproqlar hosil bo'ladi.

Oddiy bo'z tuproq tog' etaklaridan okean sathidan tahminan 500-600 m dan 1000 m gacha bo'lgan 1,5-2,5% ni tashkil etadi. Oddiy bo'z tuproqli joylarda sug'oriladigan (obikor) va baxorikor yerlar hisoblanadi.

To'q tusli bo'z tuproqlar balandroq joylarda (okean sathidan 1000-1600 m balandliklarda) tarqalgan. Tuproq tarkibidagi chirindi miqdori 3-4% ga boradi, ko'pincha bahorikor ekinlar ekiladi. Daryo vodiylaridagi kichikroq joylarda sug'orib dehqonchilik qilinadi.

Bo'z tuproqlar respublikamizda dexqonchilik qilinadigan asosiy tuproqlardir. Binobarin, ular eng muhim va tuganmas tabiiy boyligimiz hisoblanadi. Bo'z tuproqlar ishlov berish jihatidan ham, sug'orish jihatidan ham bir qator qulayliklarga ega. Adir mintaqasida cho'lga nisbatan o'simliklar ko'proq. Mintaqa bahorda qizil, siriq rangdagi lolalar va chuchmomalar bilan qoplanadi. Adirlarda ko'ng'irbosh, rang, sasir, yantoq, kovrak va gulhayrilar o'sadi. Adirlarning yuqoriroq qismida zirk, namatak butalari va do'lana kabi buta va daraxtlar uchraydi.

Adirlarda hayvon dunyosi cho'l hayvon dunyosiga nisbatan kambag'alroq. Cho'lga hos sudralib yuruvchilar kaltakesak (agama, gekkon) lar, ilon (kapchabosh ilon, zaxarli ko'k ilon)lar, hatto falanga, qoraqurt, chayon kabi hasharotlar ham uchraydi.

Yirtqichlardan tulki, bo'rilar yashaydi. Bahorda toshbaqa va yumronqoziqlar faol hayot kechiradilar. Dexqonchilik qilinadigan joylar atrofida esa jayra, bo'rsiq va tipratikanlar uchraydi. Qushlar cho'ldagidan nisbatan ko'proq: pushti rang chug'urchuq (asalarilar kushandasi), ko'k qarg'a, kaklik, zog'cha, kalxat, qirg'iy va burgut kabi qushlar yashaydi.

Voxalarda musicha, chumchuq va hushovoz bulbul hamda maynalar uchraydi. Bahorda qaldirg'och, sassiqpopishak va bulbullar uchib keladi.

Tog' mintaqasi. Bu mintaqa okean sathidan 1000-1200 m dan 2700-2800 m gacha bo'lgan balandlikdagi joylarni o'z ichiga oladi. Balandlikka ko'tarilgan sari havo harorati pasayib, yog'inlar miqdori orta boradi. Tog'larda yoz salqinroq, cho'ldagidan nisbatan qisqaroq bo'ladi.

Tog'larning shimoliy yonbag'irlari janubiy yonbag'irlariga nisbatan salqin va namroq bo'lganligidan o'tlar yoz bo'yi ko'm-ko'k bo'lib o'sib turadi. Tog'lardagi g'arbiy yonbag'irlarida sharqiy yonbag'irlariga nisbatan yog'in ko'proq bo'ladi, binobarin, bu yonbag'irlarda o'simliklar ham ko'proq va qalin o'sadi.

Tog' mintaqasidagi nam iqlim va Alin o'simlik qoplami tuproq tarkibida chirindining ko'payishiga sharoit yaratadi. Tog'larda tog'-ko'ng'ir va tog'-jigar

rang tuproqlari tarkib topgan. Bunday tuproqlar tarkibida chirindi miqdori ko'p bo'lib, 4-6% gacha yetadi.

Respublikamizning tog'lari va tog' etaklarida, daryo vodiylarida va qayirlarda o'tloq va botqoq-o'tloq tuproqlar tarqalgan.

Tog'larning yonbag'irlarida betaga, rovoch, tog' yalpizi kabi o'tlar o'sadi, namatak, zirk, dukcho'p va irg'ay kabi butalar, yuqoriroqda esa o'rmonlar uchraydi. Tog' o'rmonlarida bodom, pista, do'lana, o'rik, olma, olcha, nok, yong'oq kabi mevali daraxtlar o'sadi.

Okean sathidan 1400 m dan 25600 m gacha bo'lgan balandliklarda archa uchraydi. Archa yog'ochi mustahkam g'immatbaho daraxt bo'lib uzog' umr ko'radi. Archazorlar-shifobaxsh oromgoxlardir.

Tog' o'rmonlarining ahamiyati katta. Ular suv oqimlarini tartibga soladi, tuproqlarni yuvilib ketishidan saqlaydi, havo haroratini mutadillashtiradi, havodagi zararli moddalarni, changni yutib, kislorod va namni ko'paytiradi.

Kadrli o'quvchilar! O'rmon bizning bebaho boyligimiz va tog'larimiz ko'rkidir. Biz ularni nobud qilmay asrashimiz, ezozlashimiz lozim!

Tog' mintaqasining hayvonot dunyosi boy va juda xilma-xildir. O'rmonlarda jayra, bo'rsiq, olmahon yashaydi. Maskur mintaqada qushlar juda ko'p: boltatumshuq, mayna, zarg'aldoq, bulbul uchraydi. Boyug'lilar zararkunanda kemiruvchilarni qirib foyda keltiradi. Sutmizuvchi hayvonlardan ayiq, bo'ri, bazan silovsin ham uchraydi.

Yaylov mintaqasi. Yaylov yoki baland tog' mintaqasi okean sathidan 2700-2800 m dan balandda joylashgan bo'lib, maydoni ancha katta emas.

Mintaqadagi sovuq va nam iqlim sharoitida och ko'ng'ir va o'tloq tuproqlar hosil bo'ladi.

Yaylov mintaqasi subalp va Alp o'tloqlaridan iborat. Ayrim quyoshga teskari yonbag'irlarida yil bo'yi qor saqlinishi mumkin. Subalp o'tloqlarda asosan baland bo'yli o'tlar, shuningdek boshloqlilardan yovvoyi arpa, yovvoyi suli, betagalar o'sadi.

Bu mintaqalardagi Alp o'tloqlari past bo'yli va kichik o'tlardan iborat. O'tloqlarda to'ng'izsirt, qoqio't, tipchoq, binafshalar o'sadi. O'tloqlardan yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

Yaylov mintaqasida yirik hayvonlardan alqoro, bug'u (elik) va kiyiklar, kemiruvchilardan - sug'ur yashaydi. Yaylovning ko'rki bo'lmish qor barsi, shuningdek oq tirnoqli ayiq O'zbekiston « Qizil kitobi» ga kiritilgan (30-rasm).

Respublikamizning cho'l va adir mintaqalaridagi sug'oriladigan joylarda Toshkent (Chirchiq), Ohangaron, Farg'ona, Andijon, Namangan, Mirzacho'l, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Surxon, Xorazm va Qoraqalpoq vohalari vujudga kelgan. Toshkent, Zarafshon va Xorazm vohalari o'zining 2-3 ming yillik tarixiga ega.

Sug'orib ekmiladigan vohalarda o'tloq-allyuvial tuproqlar hosil bo'lgan, ularning tarkibida 1-1,5 % chirindi bo'ladi.

Inson vohalaridagi tabiiy o'simliklar o'rniga madaniy o'simliklardan-bug'doy, arpa, sholi va makkajo'hori kabi don ekinlari, mevali daraxtlar, uzum, anjir, anor, sabzavot ekinlari, poliz ekinlaridan dunyoga mashxur qovun va tarvuzlar yetishtira boshlagan.

Voxalar o'ziga xos hayvonot dunyosiga ega.

O'zbekiston aholisining asosiy qismi, madaniy yodgorliklari va sanoat korxonalari vohalarida joylashgan.

Respublikamiz suv havzalarida zog'orabaliq, laqqa baliq, shoxbaliq (oybaliq) va cho'rtan baliqlar uchraydi. Sirdaryo va Amudaryo suvlarida yashaydigan noyob qilquyruq baliqlari O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan.


O'zbekiston hududidagi suv havzalarida baliqchi, yovvoyi o'rdak, g'oz, qarqara, flamingo (qizilg'oz), meshkopchi qush (birqozon) va qoravoy qushlari uchraydi.

O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish

Tabiiy boyliklar-bu insonning yashashi va xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan hamda uning xilma-xil ehtiyojini qondiruvchi yagona manbadir. Inson o'zi uchun zaruriy oziq-ovqatni, kiyim-bosh, yoqilg'i va energiya, sanoat xomashyosi hamda qurilish materiallari tabiatdan oladi.

Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar-yer osti boyliklari, suv, havo, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar tabiiy boylik hisoblanadi.

Tabiat jamoa talabani qondiruvchi maba hisoblanib, undan foydalanish uch xil bo'lishi mumkin:



Tabiiy boyliklarning tugaydigan va tagamaydigan turlari mavjud. Tabiiy boyliklarning turlari haqidagi malumotlarni esga oling.

O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza qilish - inson uchun zarur bo'lgan qazilma boyliklardan oqilona foydalanish, suv va havoni toza saqlash, tuproqlarni eroziyadan saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini tabiiy holicha asrab qolib, qayta tiklash hamda xushmanzara joylarni (sharshara, shovva, ajoyib manzaralar, buloq va boshqalar) tabiiy holicha saqlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Tabiatni muhofaza qilish avvalo O'zbekiston tabiiy muxitini sof va ko'rkam holda saqlab, qayta tiklash bemakdir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyasida «O'zbekistonda hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, yer ust iva yer osti boyliklarini, suv resurslarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini qo'riqlash va ulardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz ko'paytirib borishni taminlash va insonning atrof-muhitini yaxshilash uchun zarur choralar ko'riladi», deb ko'rsatilgan.

Lekin hozir respublikamizda tabiatiga insonning tasiri tobora ortib bormoqda. Natijada uning bazi o'lkalarida (Orol bo'yida, Surxon vodiysida, Quyi Amudaryoda) ekologik xolat yomonlashib bormoqda. Havo, suv, tuproq ifloslanib, o'simlik va hayvonlar bazi turlarining soni qirilib bormoqda.

O'zbekistonning Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo vodiylari havosi zavod - fabrikalaridan va avtotransportdan chiqayotgan har xil zaxarli gazlar, qurumlar, tutun va changlar hamda qishloq xo'jaligida ishlatiladigan zaharli kimviy moddalar bilan ifloslanmoqda.

Respublikamizda joylashgan kimyo, metallurgiya, sement, mashinasozlik va boshqa korxonalardagi tozalovchi inshootlarning yaxshi ishlamasligi yoki yo'qligi sababli atmosfera havosiga yiliga ko'plab ifloslovchi moddalar chiqib ketmoqda. Shu sababli O'zbekiston havosi ancha iflos bo'lib, 31 ta shaharda atmosfera havosining ifloslik darajasi meyoridan ancha ortiqdir. Olmaliq, Angren, Navoiy, Andijon, Farg'ona, Toshkent kabi shaharlar havosi oltingugurt, azot, fenol, ammiak, vodorod ftor iva boshqa gazlar bilan ortiqcha ifloslangan. Olmaliq va Farg'ona havosi eng iflos shaharlar qatoridan o'rin olgan.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani havosi Tojikistonning Tursunzoda shahrida joylashgan alyuminiy zavodidan chiqqan zaharli gazlar bilan, xususan ftor gazi bilan ifloslangan. Natijada bu tumanda bolalar o'limi ko'payib, uzum va mevali daraxtlarning bargi sarg'ayib, hosili kamayib, hatto qoramollar kasallanib, tishi to'kilib ketmoqda.

Orol dengizi suv sathining pasayishi sababli uning atrofidagi o'lkalarda (Quyi Amudaryo, Qizilo'rda viloyatlarida) havo har xil tuzlar, changlar, zaxarli kimyoviy moddalar bilan o'ta ifloslangan. Buning natijasida aholining salomatligi yomonlashib, bolalar o'limi ham ortib bormoqda.

Respublikamiz havosini toza saqlash uchun har bir korxona doirasida zamonaviy uskunalar bilan jixozlangan tozalovchi inshootlar qurish zarur. Bunda atmosfera havosini ifloslovchi moddalarni o'shlab qolib, ulardan qayta foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Korxonalardagi ko'plab chiqindi chiqaruvchi eski dastgoxlarni kam chiqindi chiqaruvchi dastgoxlar bilan almashtirish, chiqindi chiqarmaydigan texnologik jarayonlarni joriy qilish lozim. Respublikamiz daryolari sanoat korxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish, sog'lomlashtirish tashkilotlari, parrandachilik majmuialari va chorvachilik fermalaridan chiqqan iflos suvlar hamda zovur suvlari bilan ifloslanmoqda.

Suv boyliklarini toza saqlashdagi asosiy vazifa o'sha korxonalardan chiqayotgan iflos suvlarini tozalab, zararsizlantirib, so'ngra suv xavzalariga tashlashga yoki ularni ekin dalalarini sug'orish foydalanishga erishishdan iborat. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalardan chiqayotgan chiqindilarni zavod qurib, bu chiqindilar tarkibidagi foydali elementlarni ajratib olib, so'ngra tozalab daryo va ariqlarga tashlash mumkin.

O'zbekiston suv havzalarining ifloslanishida zovur suvlarining ham tasiri bor. Chunki zovur suvlari har xil erigan tuzlarni, paxta va boshqa ekinlarga sepilgan turli hil zaxarli kimyoviy moddalar eritmasini daryolarga olib keladi, natijada suvni ifloslaydi.

Respublika daryo suvlarining zovur suvlari bilan ifloslanishining oldini olish uun ularni iloji boricha daryo, ariq yoki suv omborlariga tashlashga chek qo'yish kerak.

Atrof - muhitning ifloslanishiga tog' kon sanoati ham ishtirok etadi. Yer osti boyliklarini qidirib topish, ishga tushirish jarayonida ko'plab yerloar qaziladi, yo'llar har xil inshootlar quriladi, turli jins uyumlari vujudga keladi va ular hosildor yerlarni qoplab yotadi. Natijada hosildor yerlar yaroqsiz bo'lib, o't o'lanlar, daraxtlar yo'q qilinadi, tuproq eroziyasi boshlanadi.

O'zbekistonning tuproq qatlamini eroziyadan saqlash, uning unumdorligini tiklash uchun kurashishi kerak. Buning uchun ekinlarning sug'orish qoidasiga rioya qilish, sug'orishning ilg'or usullariga o'tish zarur. Ekinlarga ishlov berayotganida ilg'or agrotexnika usullarini qo'llash kerak. Ekinlarning

hosildorligini oshirish uchun ko'proq organik o'g'itlardan foydalanib, qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi biologik usul bilan kurashishga erishish zarur.

Respublikamiz havosini musaffo, xushmanzarali yerlarni ko'p bo'lishi uchun, avvalo yashil o'simliklarga ayniqsa o'rmonlarga bog'liq. Aholining o'rmonlarga, ayniqsa mevali (yong'oq, pista, bodom, do'lana va xokazo) va dorivor (zira, piyoz, anzur, qoraqand, oq qayin, yetmak va boshqa) o'simliklarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishi tufayli ular kamayib ketmoqda. Shu sababli dam oluvchilar sayyohlar, o'quvchilar o'simliklarni bekorga nobud qilmaslik, ularning mevasini, urug'ini ruxsatsiz yig'maslik kabi tushuntirish va targ'ibot ishlarni keng olib borish zarur. Maktablarda, maxallalarda ko'chat o'tkazish oyligi va kundaligini o'tkazish, ota-bobolarimiz ananalariga rioya qilib, boqlar, tokzorlar bunyod etishni odat tusiga kiritish lozim.

O'zbekistonning hayvonot olami ham xilma-xil. Lekin so'ngi yillarda insonning xo'jalik faoliyati tasirida (yerlarni xaydash, yangi turar joylarni barpo etish, yaylorvlardan noto'g'ri foydalanish, noto'g'ri ov qilish) ularning soni va turi kamayib ketmoqda. Chunonchi, oqquyruq, jayron, laylak, xongul, arxar, burama shoxli echki (morxo'r), qirg'ovul, kaklik miqdori keskin kamayib ketdi. Bazi hayvonlar esa jumladan, Turon yo'lbarisi butunlay yo'qolib ketdi. So'ngi yillarda qirilib ketayotgan hayvonlarni saqlab, ko'paytirish uchun yangi buyurtma maskanlari va qo'riqxonalari tashkil etildi.

O'zbekiston tabiatining ko'rkamligi uning hududida nolir tabiat go'shalarini (ajoyib soy, jilg'a, buloq, sharshara, shovva, noyob daraxtlar, xar xil jinslar, ochilib qolgan qoyalar, g'orlar, korizlar, sardobalar va hokazolar) tabiiy holicha saqlab qolishga bog'liq. Lekin so'ngi yillarda noo'rin har xil sog'lomlashtirish obyektlarini qurish, sayyoxlarning tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishi, har xil qurilishlar (suv ombori, ariqlar qazish, chorvachilik majmualari va boshq.) sababli o'shaxushmanzara joylarga putur yetkazmoqda. Bizning maqsadimiz manzarali xushtabiat joylarni (tabiat yodgorliklarni) iloji boricha o'z holicha saqlab, kelgusi avlodoarga qoldirish.

O'zbekistonda turi, soni kamayib borayotgan noyob o'simliklar va hayvonlarni hisobga oluvchi ikki jildli O'zbekiston «Qizil kitobi» nashr etilgan.

O'zbekiston «Qizil kitobi»ning birinchi jildiga 63 ta umurtqali hayvon turi, shu jumladan 22 ta sutemizuvchi, 31 ta qush, 5 ta sudralib yuruvchi hayvon, 5 ta baliq turi kiritilgan.

«Qizil kitob»ning ikkinchi jildiga muhofaza qilinishi zarur bo'lgan o'simlik turlari kirgan. Bu jildga O'zbekistonda muxofaza qilinishi kerak bo'lgan 400 ta o'simlik turining 163 tasi kiritilgan.

O'zbekiston tabiatining muxofaza qilishda qo'riqxonalar, milliy bog' va buyurtmalarning ahamiyati juda katta.

O'zbekistonda hozir qo'riqxonalar sifatida muxofaza qilinayotgan maydon 250,5 ming ga yoki respublika hududining atigi 0,6% ini tashkil etadi. O'zbekistonda 9 ta qo'riqxonalar joylashgan. Qo'riqxonalar haqidagi malumotlar ilovadagi 8-jadvalda berilgan.

Kelajakda respublikamizda qo'riqxonalar maydoni kengayib (Ustyurt, Orolbo'yida, Qizilqumda yangi qo'riqxonalar barpo etish, Hisor qo'riqxonasini kengaytirish hisobiga), O'zbekiston hududining 3% ini tashkil etadi.

O'zbekistonda yana 70 ta davlat buyurtmalari - zakazniklar ham mavjud, ular malum muddatgacha ov qilish, bazi o'simlik va hayvon turlariga shikast yetkazish man etiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: 1999 (қайта тахрири)
2. И.А. Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида» Т.: 1997.
3. Ўзбекистон Республикасида атроф табиий муҳитни муҳофазаси ва табиий ресурслардан фойдаланишнинг ҳолати тўғрисида. Миллий маъруза. 2006.
4. Н.С. Назаров. Охрана окружающей среды и экологическое воспитание студентов. М. 1989.
5. В.П. Антонов. Уроки Чернобуля: радиация жизнь, здоровья. К. Об-во. Знание УССР. 1989 г.
6. З.М. Акрамов и др. «Прошное, настоящее и будущее Аралского моря» Т.: 1990.
7. P. Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. Т.: 1991.
8. Sh. Otaboyev, M. Nabiyeв. Inson va biosfera. Т.: 1994.
9. Yu. Shodimetov. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Т.: 1994.
10. Р.У. Бекназов, А.А. Рафиқов. Охрана природы. Е.: 1995.
11. Н.Н. Моисеев, Человек и ионосфера. М. 1998.
12. Н.Н. Маслов, Ю.И. Коробов. Охрана окружающей среды на железнодорожном транспорте. М. Транспорт. 1996 г.
13. Э.И. Павлова. Экология транспорта. М. Транспорт. 1996 г.
14. В.П. Антонов. Уроки чернобыля: радиация, жизнь, здоровья. К. об-во. Знание. УССР. 1989 г.
15. А. Yergashev. Umumiy ekologiya. Т.: 2003 yil.
16. Sh.A. Shirinboev, M.G. Safin. Atrof – muhitni muhofaza qilish. Samarqand – 2003 y.
17. I. Bobobekov. Samarqand kimyo kombinati chiqindilarining sug'oriladigan tuproqlar ekologik holatiga ta'siri va uning oldini olish chegaralari. J. "Ekologicheskiy vestnik". № 5. 2006 y.

- 18.О. Hamraqulov va boshqalar. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda avtomobil transporti kompleksining keltirib chiqaradigan muammolar. J. "Ekologicheskiy vestnik" № 5. 2006 y.
- 19.В.И. Кирпечев. Здоровье индивида, здоровье населения. Ж. Экология и жизнь. № 8. Москва – 2006.
- 20.Самойлов С., об итогах деятельности органов Госкомприроду за первое полугода 2005. Ж. Экологический вестник. № 5 Тошкент – 2005.
- 21.О'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida milliy ma'ruza. T.: -2006 y.
- 22.И.В. Куликов, И.В. Молчанова, Э.Н. Караваева. Радиоэкология почв растительный покровов. Свердловск: АНССР. 1990 г. с 187.
- 23.Э.И. Авдеева. Экологические права и охрана окружающей среды. Ташкент – 2003 г.
- 24.Н.П. Моисеев. Природа и общество: единство процесса самоорганизации. Ж. Экология и жизнь. № 1 Москва – 2006.
- 25.И.Н. Голисын. Промышленная экология. Москва – 2002 г.
- 26.Э.В. Парахонский, Г.А.Маховикова. Экология. КонспЭект. Эксий. М.:Эксмо, 2006. -114 с.
- 27.Митчелл Пол. 101 ключевая идея: Экология. М.: ФАИР-ПРЕСС, 2001.-224 с.В.П.Лим, Э.С.Ан, А.А.Григорьянс и др. Заповедники и национальные парки. Ташкент: Чинор ЭНК, 2007. –152 с. («Охраняемые природные территории Узбекистан»).
- 28.Т.Я. Ашихминой. Экологический мониторинг: Учебно – методическое пособие. М.: Алма Матер, 2008. –416 с.
- 29.L.Yo.Yormatova. Sanoat ekologiyasi. Toshkent. Faylasuflar milliy uyushmasi. 2008 y. 256 bet.
- 30.Виноградов Б.В.Основы ландшафтной экологии М. ГУЩС 2006.
- 31.Лархер Д.Экология растений М.Мир.2011.

32. Горышина Т.Н. Экология растений. М. Высшая школа. 2011.
33. Воронов А.Г., Дроздов Н.Н., Криволуцкий Д.А., Мяло Е.Г.
Биогеография с основами экологии. М. Высшая школа. 2011.
34. WWW.nature.uz.
35. WWW.uznature.uz.
37. WWW.Carec.kz.
38. WWW.ecoforum.sk.uz.